

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabrida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 18735,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 6,8 % ga o'sdi.


2019-yil yanvar-dekabr oylari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 9944,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 % ga oshdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		2018-yil yanvar-dekabriga nisbatan % da
	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr	
<b>I. YaHM</b>	<b>15009,4</b>	<b>18735,7</b>	<b>106,8</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	13775,6	17005,9	106,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	1233,7	1729,8	106,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>13775,6</b>	<b>17005,9</b>	<b>106,8</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4005,9	4642,2	106,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5295,2	6701,5	108,4
sanoat	4328,4	5277,9	105,0
qurilish	966,8	1423,6	123,8
Xizmatlar	4474,6	5662,2	104,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	755,7	876,7	102,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	929,4	1021,4	104,5
boshqa xizmat tarmoqlari	2789,5	3764,1	105,6

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'ati – 106,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi 27,3 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 108,4 % (39,4 %) hamda xizmatlar tarmog'i – 104,9 % (33,3 %).

### 2019-yilning yanvar-dekabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 90,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa 9,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,8 % punktga kamaydi va hisobot yilida 27,3 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 1,0 % (39,4 %) punktga oshdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019-yil yanvar-dekabrda 33,3 % ni tashkil etdi va 2018-yil mos davri (32,5 %) bilan taqqoslanganda 0,8 % punktga oshdi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-dekabr



2019-yil yanvar-dekabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,2 % ni (2018 yil yanvar-dekabr – 5,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,0 % ni (6,7 %), xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 22,1 % ni (20,3 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2018-yil yanvar-dekabr**



**2019-yil yanvar-dekabr**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma  
axborot-tahliliy ishlar bo`limi**

**Tel.: (0-361) 222-74-58;**

**(0-371) 230-82-03**